

BANKLAR TOMONIDAN ZAMONAVIY DEPOZIT XIZMATLARINI KO‘RSATISH AMALIYOTI

Rahimov Akmal Matyaqubovich
TDIU professori, PhD
+998901347171, akmal0705@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot ishida banklar tomonidan zamonaviy depozit xizmatlarini ko‘rsatish amaliyoti hamda u bilan bog‘liq holatni o‘rganish maqsad qilingan. Shuningdek, banklar tomonidan zamonaviy depozit xizmatlari tavsifini shakllantirish, xususan, masofadan depozit xizmatini ko‘rsatish hamda yashil depozitlar kabi depozit turlari borasidagi ilmiy-nazariy qarashlarni o‘rganish hamda mazkur jarayonda aniqlangan muammolarning yechimi bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Kalit so‘zlar. Depozit operatsiyalari, masofaviy depozit xizmatlari, yashil depozitlar, raqamli depozit xizmatlari, aholi omonatlari.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar mamlakatimizning iqtisodiy salohiyatini yil sayin yuksalib, jahon hamjamiyatidagi nufuzini oshib borishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Albatta, bunda bank muassasalari va ishbilarmonlar o‘rtasida qulay infratuzilma, mavjud imkoniyat hamda ishonchli moliyaviy hamkorlikning yaxshi yo‘lga qo‘yilganligi ham o‘zining ijobiy samaralarini bermoqda.

Tijorat banklari tomonidan mijozlarga xavfsiz, tez hamda ular uchun qulay xizmat ko‘rsatish bugungi kunda muhim jihatlardan hisoblanadi. Bu o‘z navbatida har ikkala tomonga ya‘ni, bank va mijoz uchun birdek foydali bo‘lib, ularning kelgusidagi moliyaviy holatini yaxshi tomonga o‘zgarishiga xizmat qiladi.


Banklar uchun birinchi navbatda mijoz asosiy hamda birlamchi e‘tibor qaratilishi zarur bo‘lgan subyekt hisoblanadi. Mijozlar sonining ortishi kelgusida bankning moliyaviy holatining yaxshilanishi ya‘ni bankning daromadi ortishining asosiy omili bo‘lib, bank faoliyati samaradorligi hamda banklararo raqobat muhitida bankning o‘z o‘rni va mavqeini mustahkamlashning zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, banklarda bugungi kunda resurs jalb qilishda ham mijozlarning o‘rni beqiyosdir. Har bir mijoz albatta bankda hisob raqam ochib, mazkur hisobraqamda o‘z pul mablag‘larini boshqaradi. Bunda mijozning faoliyatida zarur bo‘lgan pul mablag‘laridan ortgan qismi bank uchun resurs bo‘lishi mumkin.

Tijorat banklari resurs jalb qilishda asosan depozit operatsiyalaridan keng foydalanishadi. Depozit operatsiyalari aholi va xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘larini ma‘lum shartlar asosida banklarga joylashtirish bo‘lib, bu orqali mijoz ham bank ham manfaatdor bo‘ladi. Mijozlar albatta ma‘lum shartlar asosida bankka joylashtirgan pul mablag‘larini ko‘paytirib olishsa, banklar o‘z navbatida mazkur depozitga jalb

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

qilingan mablag‘lardan resurs sifatida foydalanib, bank uchun yuqori daromadli bo‘lgan kredit operatsiyalarini amalga oshirishadi. Bu yerda albatta bank jalb qilingan hamda iqtisodiyotning pulga muhtoj tarmoqlariga kredit sifatida joylashtirgan pul mablag‘larini muddatiga alohida e‘tibor qaratishi lozim bo‘ladi.


Banklar tomonidan jalb qilinadigan depozitlarning bir qator turlari mavjud bo‘lib, O‘zbekistonda ularning keng tarqalgan turlari sifatida talab qilib olinguncha depozitlar, muddatli depozitlar hamda jamg‘arma depozitlarni keltirishimiz mumkin. Mazkur depozit turlarini an’anaviy depozitlar sifatida talqin etishimiz mumkin.



1-rasm. Depozit turlari.

Banklar an’anaviy depozitlardan tashqari bugungi kun nuqtai-nazardan kelib chiqqan holda zamonaviy depozit xizmatlarini ham ko‘rsatib kelishmoqda. Zamonaviy depozitlarni ham o‘z navbatida bir qator turlarga ajratgan holda o‘rganishimiz mumkin bo‘ladi. Xususan, banklar mobil ilovalari orqali masofadan onlayn depozit xizmatlarini ham ko‘rsatib kelishmoqda. Su o‘rinda aytish joizki, bugungi kunda tijorat banklari tomonidan ko‘rsatilayotgan zamonaviy depozit xizmatlari an’anaviy depozitlar negizida zamonaviy, moliyaviy texnologiyalar asosida amalga oshiriladi.

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI




2-rasm. Tijorat banklarining depozit mablag‘lari tarkibi

Tijorat banklarining depozit mablag‘lari tarkibi to‘g‘risida keltirilgan ma‘lumotlardan ko‘rishimiz mumkinki, yillar davomida yuridik shaxslar depozitlari va aholi omonatlari o‘shish tendensiyasiga ega. Xususan, 2024 yil boshiga yuridik shaxslar depozitlari 155,3 trln. so‘mni tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2020 yil boshiga nisbatan 2,2 barobarga ortgan. Aholi omonatlari shu davrda mos ravishda 4,1 barobarga oshganini ko‘rishimiz mumkin. Bu holat mijozlarning bank tizimiga bo‘lgan ishonchining oshib borayotganligidan dalolat beradi.

Rivojlangan davlatlarda banklar tomonidan ko‘rsatilayotgan zamonaviy depozit xizmatlari sifatida bank mijozlariga yashil depozit xizmatlarini taklif qilishmoqda. Banklarning yashil depozitlari hisobiga shakllangan pul mablag‘lari bevosita yashil moliyalashtirish uchun resurs sifatida foydalanib kelinmoqda.

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI



3-rasm. An'anaviy va yashil depozitlar farqli jihatlarini.

An'anaviy depozitlar va yashil depozitlar bir xil depozit mazmuniga ega bo'lib, u belgilangan muddatga ma'lum shartlar asosida pul mablag'larini bankka qo'yishni ifodalaydi. Ularning asosiy farqli jihati bankka qo'yilgan mablag'lardan resurs sifatida qaysi yo'nalishlarga joylashtirilishi bilan farqlanadi.

Odatda banklar yirik korxonalariga, kichik va o'rta korxonalariga yoki chakana mijozlarga kreditlar berish uchun muntazam muddatli depozitlar mablag'laridan foydalanadilar. Ushbu kreditlar biznes kreditlari, avtokreditlar, iste'mol kreditlari, kredit kartalari va boshqa kreditlar shaklida bo'lishi mumkin. Yashil depozitlar hisobiga bankda shakllangan pul mablag'laridan esa faqat ekologik toza loyihalar, faoliyat uchun foydalanilishi belgilangan bo'lib, bank tomonidan bu resurslar faqat mazkur yo'nalish doirasida foydalaniladi. Har bir bank o'zining yashil depozit dasturlari doirasida biznes yo'nalishlarini yoki loyihalarni tanlab oladi. Shu sababli, yashil depozitlar ekologik toza loyihalarga e'tibor qaratgan holda mas'uliyatli kreditlashni rag'batlantirish orqali tijorat banklari uchun barqaror biznes amaliyotini targ'ib qiluvchi moliyaviy mahsulot turidir.

Xulosa qilib aytganda, banklar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlari tarkibida depozit xizmatlari banklar faoliyati uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi, asosiy resurs manbai sifatida namoyon bo'ladi. Tijorat banklari zamonaviy moliyaviy vositalardan foydalangan holda depozit xizmatlarini ko'rsatishi, ya'ni mijozlar masofadan turib, bank ilovalari orqali depozit hisobraqam ochishlari hamda pul mablag'larini samarali boshqarishlari uchun bugungi kunda barcha imkoniyatlarning mavjudligi bevosita mijozlarning vaqtlarini tejatishiga, xarajatlarini kamayishiga, bank uchun esa mijozlar sonining ortishi hamda ularga xizmat ko'rsatish uchun ketadigan xarajatlarni minimallashtirishiga, bank daromadining ortishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Matyaqubovich R. A. THE EXPERIENCE OF DEVELOPED COUNTRIES IN EXPANDING THE BANK DEPOSIT BASE //International Journal of Global Economic Light. – 2023. – Т. 9. – №. 10. – С. 1-5.
2. Matyakubovich R. A. DEVELOPMENT OF DEPOSIT OPERATIONS OF COMMERCIAL BANKS //Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 30. – №. 5. – С. 127-132.
3. Хаджаев Х. С., Рахимов А. М. Процессы глобализации в экономическом развитии //Молодой ученый. – 2016. – №. 1. – С. 515-517.
4. Rakhimov A., Mamadjonov S. Market Risks In Commercial Banks: Methods Of Assessment And Analysis //European Journal of Research Development and Sustainability. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 92-94.
5. Худоёров О.О.,Эргашев А.Ж. "тижорат банклари балансдан ташқари операцияларининг илғор хориж тажрибаси" vol. 2 no. 23 (2023): o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. <https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/7881>
6. Narichaya Satafang. Green Deposits for Greater Sustainability. March 2024 Krungsri Research.
7. Худоёров О.О. (2023). Банк тизимини рақамлаштириш шароитида рақамламли банк технологиларини жорий қилиш . ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 13(7), 99–107. Retrieved from <http://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/2788>
8. Xudoyorov, O. O. (2023). Bank daromadlarini oshirishda masofaviy bank xizmatlarini tutgan o‘rni.
9. Odilovich, K. O. (2024). IMPACT OF REMOTE BANKING SERVICES ON BANK INCOME. *International Journal of Education, Social Science & Humanities*, 12(6), 82-86.
10. Qlichev Baxtiyor Pardayevich. (2024). Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda CVP-tahlilni tashkil etishning muammoli jihatlari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 4 (2024), 754–759
11. Чориев И.Х. (2023). Молиявий ҳисоботлардаги хатоликларни аниқлашда таҳлилий амаллардан фойдаланишнинг услубий жиҳатлари. *Scientific Journal of “International Finance & Accounting*, Issue 1, February 2023.
12. Қличев, Б. (2022). КРІ ТИЗИМИ АСОСИДА МОДДИЙ РАҒБАТЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ ТАҲЛИЛИ. *Архив научных исследований*, 2(1). извлечено от <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/1343>
13. Чориев И.Х. (2023). Молиявий инвестициялар ҳисобини такомиллаштириш. *Scientific Journal of “International Finance & Accounting*, Issue 2, April 2023.

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

14. U.K.Yakubov, G.S.Maxmudova. (2022). Biznes tahlil: Operatsion tahlil-1,2. (Darslik). –T.: “Nihol print”, 205 b.

15. Qlichev Baxtiyor Pardayevich. (2024). Korxonalarda operatsion faoliyat samaradorligini tahlil qilish masalalari. *World Scientific Research Journal*, 26(3), 86–94. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3251>

16. Косимович, Я. У. (2024). Ташқи савдо фаолиятида мақбул ечимни топиш масалаларини таҳлили. *World scientific research journal*, 26(2), 199-205.

17. Tulaev, M. (2024). Moliyaviy hisobot konsepsiyalari. *Nordic_Press*, 2(0002).

18. Kasimovich, Y. U. (2021). Developing A Model On The Basis Of A System Of Indicators Determining The Efficiency Of Foreign Trade Activities. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(7).

19. Klichev, B.P., Choriev, I. X. (2021). The Issues Of Business Activity Organization In Uzbekistan. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry (TOJQI)*.Volume 12, Issue 7, July 2021: 4587-4593.-
[URL:https://www.tojqi.net/index.php/journal/article/view/4494](https://www.tojqi.net/index.php/journal/article/view/4494)

20. Abdullayev, A., & Djamalov, H. (2023). ORGANIZATIONAL STRUCTURE OF THE INTERNAL CONTROL SERVICE FOR THE FULFILLMENT OF TAX OBLIGATIONS OF ENTERPRISES. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 8(4), 297-307.